

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOT VA AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI 2020-2025 YILLAR TAHLILI

Ergasheva Nafisa

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi o‘qituvchisi

Axrarova Dilrabo Davron qizi

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Maqolada 2020-2025 yillarda elektron tijoratning (e-commerce) O‘zbekiston iqtisodiyoti va aholi daromadlariga ko‘rsatgan ta’siri tahlili qilinadi. Raqamli infratuzilma holati, internet qamrovi, onlayn to‘lovlar dinamikasi hamda e-savdo bozori hajmi bo‘yicha mavjud ochiq manbalar asosida ko‘rsatkichlar jamlanadi. Natijalar elektron tijoratning bandlik, soliq bazasi va eksport salohiyatini kengaytirishdagi o‘rnini tasdiqlaydi; sohaning barqaror o‘sishi uchun raqamli savodxonlik, to‘lov infratuzilmasi va kiberxavsizlik bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilanadi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, internet qamrovi, onlayn to‘lovlar, P2P, fintech, soliq bazasi, bandlik.

Kirish

Globalashuv va raqamli transformatsiya fonida elektron tijorat savdo tizimini tubdan o‘zgartirdi: tranzaksiya xarajatlarni kamaytirdi, narx shafofligini kuchaytirdi, bozor chegaralarini kengaytirdi va aholing bandlik hamda daromad imkoniyatlarini oshirdi. Axbarot texnologiyalarining rivojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimlari ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Jahon hamjamiyati qo‘llagan rivojlanish va farovonlikka erishish uchun, axbarot texnologiyalari bo‘lgan ehtiyoji katta suratlar bilan oshib bormoqda. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin axbarot oqimining taminlanishi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtiradi va sotsial farovonlikni oshirishga zamin yaratadi. O‘zbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi oqibatida biznes faolyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 2025 boshida 32,7 mln. ga yetib, qamrov 89% ni tashkil etadi- bu ichki onlayn talabning yuqori potensialini ko‘rsatadi.

Asosiy qism

Elektron tijorat – tovarlarning tadbirkorlik faolyati doirasida axbarot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotisiga aytiladi.

Uning asosiy ustunliklari: raqobatni kuchaytirish va narxlarni pasaytirish, marketing hamda logistika xarajatlarini qisqartirish, eksport kanalarini soddalashtirish, moliyaviy oqimlarning shafoflashuvi. 2025-yilga kelib aholi punktlarining 98% damobil internet mavjudligi, uy xo‘jaliklarning 65% dagi yuqori tezlikdagi tarmoqqa ulanishi ushbu ustunliklarni real sektorga tez singdirish imkonii bermoqda. So‘ngi yillarda axbarot texnologiya va global internet rivojlanishining

sezilarli o‘sishi inson hayoting turli sohalarida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Elektron tijorat elektron to‘lovlarni amalga oshirish, mijozlar va yetkazib beruvchilarni qidirish, reklama tarqatish, internet ilovalari orqali tovarlarni sotib olish va sotish kabi ko‘plab biznes operatsiyalarni bajarishga imkon beradi. Elektron tijoratning afzaliklari haqida quydagilarni aytishimiz mumkin. Vaqt va tirik mehnat xarajatlari bilan bog‘liq tranzaksiya xarajatlarini kamayishi; Xaridlarga, to‘lovlarga tezkor kirish, istalgan joyda istalgan narsaga kirish imkoniyatini berishni aytish joiz. Internet nashirning xabar berishicha bugungi kunga kelib 95% aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan. O‘zbekistonda mahalliy do‘konlarni tashkil etish jarayoni uzviy rivojlanmoqda. O‘z mahsulotlari yoki xizmatlarini sifat va vizual etishning yuqori standartlariga javob beradigan onlayn do‘konlar soni ortmoqda.

So‘ngi yillarda raqamli qamrov O‘zbekistonda tez sur‘atlar bilan oshdi va bu uy- xo‘jaliklari va internet orali xarid qilishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Internet foydalanuvchilari soni 2021 yildagi 76,6% dan boshlab yil sayin oshib, 2024-yil boshida taxminan 83-93% oralig‘da qayd etildi-ya‘ni aholining katta qismi onlayn imkoniyatlarga ega bo‘lib qoldi. Bu tendensiya uy-xo‘jaliklarining onlayn axbarot olish, bank xizmatlari va internet -sotib olishlariga yo‘naltirishni rag‘batlantirmoqda.

Elektron tijoratning bozor miqyosi va uy-xo‘jaliklarining haqiqiy xarid odatlari orasi hal qiluvchi tafovut bor: 2022-yilda O‘zbekistonda e-tijorat bozorining qiymati rasmiy baholarga ko‘ra taxminan 311 million Aqsh dollar atrofida bo‘lib umumiy chakana savdo hajimdagi ulushi past-2-3% darajasida qayd etildi. Shu bilan birga (KPMG, Euromonitor asosida) 2022-2027 –yillar davrida e-tijoratning yuqori o‘sishi va 2027- yilga kelib bozor ulushi 9-11% gacha o‘sishi bashorat qilinmoqda.

O‘zbekistonda so‘ni yillarda elektron tijorat bozori jadal rivojlanib, raqamli to‘lovlar iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. 2020-2025-yillarda onlayn to‘lovlar hajmi keskin oshib, elektron tranzaksiyalar ulushi naqd pulan foydalanishni sezilarli kamaytirdi. 2020-yil jami onlayn to‘lovlar hajmi taxminan 22-trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 90-110 trillionga yetgani aytilmoqda. Bu esa yiliga 30-35% da o‘sish suratini anglatadi. raqamli to‘lovlarning umumiy savdodagi ulushi 2020-yildagi 14%dan 2025-yilda 42% ko‘tarilgani aytilmoqda.

Onlayn tranzaksiyalar ham keskin oshmoqda. 2020-yil ro‘yhatga olingan tranzaksiyalar miqdori 450 million atrofida bo‘lgan bo‘lsa ham, 2025-yilda 1,3 milliarddan ortiq tranzaksiya amalga oshirilgan. Bu foydalanuvchi oyiga 9-12ta onlayn to‘lov amalga oshirishini korsatadi. aholi o‘rtasida mobil bank ilovalari va elektron hamyonlardan faol foydalanish tobora kengaymoqda. Foydalanish hajmi 2025-yilda 12-14 millionga yetganini ko‘rsatmoqda. Onlayn to‘lovlar ko‘payishi bilan birga xavfsizlik mexanizmlari ham takomillashtirildi. 2025-yilda tranzaksiyada 6ta firibgarlik holati uchradi. Bu juda kam ko‘rsatkich hisoblanadi. O‘zbekistonda onlayn to‘lov qabul qiluvchi e-commerce platformalarning soni 2020-yil 110tadan 2025-yilda 420taga yetib, bozorning kengayishiga katta hissa qo‘shdi.

E-savdo hajmi O‘zbekistonda oxirgi yillarda eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biriga aylandi. 2020-2025-yillarda e-savdo hajmi sezilarli ravishda

kengayib, chakana savdoning umumiy tarkibida uning ulushi keskin oshdi. 2025-yilda 28-31 trillion atrofida bo‘lganini ko‘rsatiladi. Bu holat besh yil davomida bozorning qariyb 5,5-6 baravar o‘sganini ko‘rsatadi. O‘shining asosiy sababi sifatida-internet foydalanuvchilari hajmi ko‘payishi, mobililovalar orqali xarid qilishlar ko‘payish holati, shuningdek, mahalliy onlayn platformalarning kuchayib borayotgan raqobatidir. Shu davrda bozordagi yillik o‘shish o‘rtacha 32-28% atrofida bo‘ladi. E-savdoning chakana savdodagi ulushi ham kundan –kunga ortib bormoqda. 2020-yilda elektron savdoning umumiy chakana aylanadigi ulushi atigi 2,2% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil holatiga ko‘ra 7,8-9% o‘ralig‘ga kotarilmoqda. Bu O‘zbekistonda chakana savdo yanada takomillashayotgandan darak berar ekan. 2025-yilda jami chakana savdo aylanmasi 360-380-so‘mni ko‘rsatadi, shundan deyarli 30-trillion so‘m gina elektron savdo orqali amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Lekin aholining onlayn savdoga bo‘lgan ishonchi oshgani birmuncha bo‘lsa ham quvonarli jarayon. E-savdoning tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgarib bormoqda. 2020-yil onlayn xaridlarning asosiy qismi maishiy texnikaga oid bo‘lsa, 2025-yilga kelib, kiyim-kechak, oziq-ovqat yetkazib berish, maishiy xizmatlar, transport chiptalar va turizm xizmatlari ulushi ham keskin oshdi. E-savdoning kelgusidagi ulushi va rivojlanish istiqbollari ham ijobiy ya‘ni 2027-yilgacha elektron savdoning chakana savdodagi ulushi 12-14% ga yetib borishi, aytilmoqda.

Oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar, xususan, sanoatlashuv, xizmatlar sektorining kengayishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi vqqa bandlik bozoriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. 2025-yilda rasmiy bandlar soni 6,3 millionga yetgan. Eng tez oshish tijorat, logistika, transport, qurilish va IT xizmatlarida kuzatildi. Shuningdek, kichik biznesda bandlik darajasi yildan-yilga 4-6% oshib bormoqda. Bandlik darajasini oshishi iqtisodiyotga uy-xo‘jaliklariga daromadning barqarorligini ta‘minlash va iste‘mol bozorini kengaytirish orqali ijobiy ta‘sir korsatmoqda. Bandlikning kengayishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va eksportdan kiradigan valyuta tushumlarining ko‘payishi real daromadlar oshishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonda real daromadlar aholi jon boshiga 2025-yil holatiga ko‘ra o‘rtacha yillik 6-8% ni osib borayotganini ko‘rsatadi. Daromadlarning o‘shishi iste‘mol xarajatlarini kengaytirib, ichki talabni mustahkamladi. Bu esa makroiqtisodiy oshishni qo‘lab –quvvatlovchi asosiy transmissiya kanallaridan biriga aylanadi.

Iqtisodiy faollikning ortishi, tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi va soliq tizimini raqamlashtirish soliq bazasining kengayishiga olib keladi. O‘zbekistonda so‘ngi besh yil ichida budjet soliq tushumlari 1,7 baravarga oshdi. Ayniqsa, QQS foyda solig‘i aksizlar va yer uchun olinadigan soliqlarda sezilarli o‘shish mavjud. Raqamli soliq monitoring tizimlari, elektron hisob- faktura tizimlari (EHF) onlayn nazorat kassa, mashinalar va to‘lovlar shafoligini oshiruvchi platformalar yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirdi. 2020-yil YIM ni 52% ni tashkil etgan norasmiy iqtisodiy ulushi 2025-yilga kelib 43% gacha qisqargani aytilmoqda. Eksport iqtisodiy rivojlanishning muhim transmissiya mexanizmlaridan biri deya tariflasak notog‘ri bo‘lmaydi. 2025-yilga kelib to‘qimachilik, elektrotexnika, avtobamilsozlik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va kimyo sohasini eksportni asosini

tashkil etmoqda. Eksportning osishi davlatga qo‘shimcha milliy valyutani kengaytirish imkonini beruvchi sohadir.

Mavjud cheklovlar va yechimlar

Ba’zi hududlarda internet tezligi pastyoki barqaror emas, Logistika infratuzilmasining noteks rivojlanishi, To‘lov tizimlari o‘rtasida to‘liq intergatsiya mavjud emasligi ba’zi holatlarda texnik xatolarga olib keladi. Bu xatoliklarni yechimi sifatida keng polosli internet qamrovini 96-98%ga yetkazdirishimiz kerakligi, “oxirgi kilometr” logistika xizmatini rivojlantirish, mahalliy kuryer tarmoqlarini kengaytirish, to‘lov tizimlari banklar o‘rtasida yagona API-standartlarini joriy etish orqali e-tijorat yo‘nalishlarini rivojlantirishimiz mumkinligini aytib o‘tishim lozim. Bundan tashqari holatlarni ham aytib o‘tishim lozim. Elektron shartnoma masofaviy savdo qoidalari barcha tadbirkorlar tomonidan to‘liq tushunilmaslik holatlari hamda Kross-border savdo bo‘yicha bojxona tartiblari murakkabligi kichik biznes uchun to‘siq bo‘lib qolmoqda. Foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha standartlar yetarlicha izchil emasligini ham aytib o‘tishim lozim. Bundan tashqari fintech raqobatini rag‘batlantirish, kiberxavsizlik standartlari va antifraud platformalarini majburiylashtirish ham bu sohani rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

2020-2025 yillarda elektron tijorat O‘zbekistonda jadal ravishda kengaydi: internet qamrovi 89% chiqdi, P2P va onlayn to‘lovlar hajmi esa 2022-2024 yillarda kamida 311-mln dan 543-605mln Aqsh dollar diapoziniga yetdi. Baholashlardagi farq sohaning tez o‘zgarishi va metodlar tafovutini ko‘rsatadi, biroq terend ravshan: e-savdo-iqtisodiy o‘rnatish, soliq bazasi va aholi daromadlarini oshirishning kuchli drayveri. Kelgusi bosqichda infratuzilmani sifati, kiberxavsizlik, fintech raqobati va metodologik birlikni taminlash soha samaradorligini ancha oshirishi kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. DataReportal. Digital 2025: Uzbekistan (Jan. 2025) — internet foydalanuvchilari va qamrov. DataReportal – Global Digital Insights
2. O‘zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi. Telecommunication (2024/2025) — mobil internet qamrovi, uy xo‘jaliklari ulanishi, DClar. digital.gov.uz
3. Central Bank ma’lumotlariga tayangan xabarlar: Uzcard/HUMO P2P 2023 — 224,3 trln so‘m. <https://yuz.uz+1>
4. KPMG (2023). E-commerce in Uzbekistan — 2022 yil bozor hajmi bahosi. assets.kpmg.com
5. KPMG (2024). B2C Payments, POS financing & BNPL in Uzbekistan — 2023 yil e-savdo diapazoni. assets.kpmg.com
6. Kursiv Media (2025). E-commerce share ~3% (baholash). Kursiv Media Uzbekistan
7. ECDB (2025). Online share 5–10% (baholash). ecdb.com
8. UNDP (2025). Digital Economy of Uzbekistan — infratuzilma va regulativ muhit bo‘yicha tahlil. UNDP
8. Visa (2023). Advantages of Electronic Payments in Uzbekistan — moliyaviy inklyuziya va to‘lov tizimlari raqobati. cis.visa.com